

## SAYLOV HUQUQI VA SAYLOVGA OID QONUNCHILIKNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

**Otaboyeva Muxlisa G'anijon qizi**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat*

*Universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada saylov huquqi, saylov jarayonlarida bizga yaratilayotgan keng imkoniyatlar hamda saylov jarayonlarida sodir etilgan huquqbuzarliklarga doir javobgarlik tog'risida ma'lumotlar keltirilgan. This article provides information about the right to vote, the wide range of opportunities created for us during the election process, and the responsibility for violations committed during the election process.*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о праве голоса, широком спектре возможностей, созданных для нас в ходе избирательного процесса, а также ответственности за нарушения, допущенные в ходе избирательного процесса.*

**Kalit so'zlar:** *Saylov, saylov huquqi, saylov kodeksi, konvensiya, jinoyat kodeksi, huquqbuzarlik, javobgarlik, saylov komissiyasi.*

**Ключевые слова:** *выборы, избирательное право, избирательный кодекс, конвенция, уголовный кодекс, правонарушение, ответственность, избирательная комиссия.*

Saylov huquqi fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etish, o'z vakillarini saylash va saylovda ovoz berish huquqini anglatadi. Bu huquq demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, davlatning qonun chiqarish, ijro etish va sud tizimlarida fuqarolarning ta'sirini ta'minlaydi. Har qanday huquq o'zining kafolatiga ega bo'lgani singari saylov huquqi ham bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarda o'z tasdig'ini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining saylov kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari. Saylov kodeksining 3-moddasiga binoan "O'zbekiston Respublikasida saylov umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Saylov ochiq va oshkora o'tkaziladi". Bu tamoyillar O'zbekistonda saylov jarayonining shaffof, erkin va adolatli bo'lishini kafolatlaydi. Shuningdek, saylovchilarning huquqlari, davlat boshqaruvidagi o'zgarishlarga ta'sir etish imkoniyati kengayadi, bu esa demokratik rivojlanishning muhim omillaridan biridir.

Saylov kodeksining 7 - moddasida yashirin ovoz berish saylovchining xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyatini istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali ta'minlanishi belgilangan.<sup>1</sup>

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksida O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolarining, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq va erkinliklar tengligi kafolatlangan.

Shuningdek, O'zbekiston BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan bo'lib, uning 29-moddasida ishtirokchi davlatlar nogironlarning siyosiy huquqlarini va boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini kafolatlashi va nogironlar boshqalar bilan teng ravishda siyosiy va ijtimoiy hayotda bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali samarali va har taraflama ishtirok etishlari, shu jumladan saylash va saylanish huquqlari va imkoniyatlariga ega bo'lishlarini, jumladan, ovoz berish tartiblari, binolari va materiallari anglash va foydalanish uchun mos va oson bo'lishini ta'minlash majburiyatlarini olishi belgilangan. Nogironligi bo'lgan shaxslar saylovlarda ishtirok etish orqali nafaqat o'z siyosiy huquqlaridan foydalanadilar, balki bu orqali o'zlarini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladilar.

Taraqqiy etgan demokratik huquqiy davlatlarda saylovlarning adolatli o'tishi har bir saylovchining ovoz berish jarayonida ishtirok etishini ta'minlash borasida yaratilgan shart-sharoitlarning saylovchi-fuqarolar uchun qulayligi, kengligi hamda huquqiy asosga ega ekani bilan belgilanadi. O'zbekiston milliy saylov qonunchiligida ham barcha saylovchilarga ovoz berish jarayonida to'sqinliksiz ishtirok etishini ta'minlash borasida muhim qoidalar belgilangan. Ulardan biri saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berish huquqi institutidir. Qayd etish lozimki, saylovlarda muddatidan oldin ovoz berish tartibi ilg'or xorijiy davlatlarda, xususan, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Finlyandiya, Norvegiya, Polsha, Ruminiya va boshqa ko'plab davlatlarda mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 57-moddasiga muvofiq, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchi muddatidan oldin ovoz berish huquqiga egadir. Muddatidan oldin ovoz berish saylovga o'n kun qolganida boshlanadi va saylovga uch kun qolganida tugallanadi.<sup>2</sup>

Saylovda O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi konsullik ro'yxatida turgan yoki turmaganligidan qat'iy nazar xorijda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarimiz

<sup>1</sup> <https://lex.uz/en/docs/-4386848>

<sup>2</sup> <https://ombudsman.uz/oz/docs/fuqarolarning-saylov-huquqi-va-kafolatlari>

uchun o'sha davlatlarda tashkil etilgan saylov uchastkasida ovoz berish imkoniyati yaratiladi. Ammo huquqni qo'llash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, saylovlarni o'tkazish jarayonida ayrim qonunbuzarlik holatlari uchramoqda. Xususan, 2023-yilda saylov qonunchiligini buzish bilan bog'liq 23 ta, joriy yilning o'tgan davrida 9 ta holat ma'muriy sudlarda ko'rib chiqilgan. Bu esa mazkur masalani chuqur tahlil etishni taqozo qiladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi sakkizta moddadan iborat bo'lgan yangi bob — "Saylovlar va referendumlarni tashkil qilish va o'tkazish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" deb nomlangan VI bob bilan to'ldirildi.

Mazkur kodeksda saylov qonunchiligini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik qat'iy belgilab qo'yilishi saylov erkinligi prinsipi yanada to'liqroq amalga oshirilishiga, mamlakatimiz saylov tizimi yanada demokratlashtirilishiga, saylovning ochiq hamda oshkoraligi tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga asosan, deputatlikka yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning, ishonchli vakilning, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlarini, saylovoldi tashviqoti, referendumga qo'yilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish shartlari va tartibini buzish kabi harakatlar ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shuningdek, saylov natijalariga ta'sir ko'rsatish maqsadida nomzod yoxud siyosiy partiya to'g'risida ataylab yolg'on ma'lumotlarni e'lon qilish bilan bog'liq harakatlar sodir etish ham ma'muriy javobgarlik choralari qo'llanilishiga olib keladi. Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, saylov komissiyalari o'z vakolati doirasida davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar va mansabdor shaxslardan mustaqildir. Zero, saylov jarayonini qonuniy, adolatli hamda saylovning barcha ishtirokchilariga teng sharoitlarda tashkil etish uchun saylov komissiyasi a'zolarining mustaqil holda ish yuritishlari g'oyat muhim tamoyil hisoblanadi. Uning amalda ta'minlanmasligi saylovlarning demokratik mohiyatiga jiddiy putur yetkazadi.

Saylov komissiyasi ishiga aralashuv aybdor shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Bunday huquqbuzarlik mansabdor shaxs tomonidan xizmat yoki mansab mavqeidan foydalangan holda, saylov komissiyasining muayyan qaror chiqarishiga yoxud chiqarmasligiga undashga qaratilgan harakatlarda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, Markaziy saylov komissiyasi o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlar okrug va uchastka saylov komissiyalari, davlat organlari, siyosiy partiyalar hamda boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi.

Shuningdek, viloyat, tuman, shahar saylov komissiyalarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarori quyi saylov komissiyalarining, tegishli mahalliy davlat organlari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari hamda harbiy qismlar, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning rahbarlari uchun majburiydir.

Saylov komissiyalarining o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlarini bajarmaslik mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Bu borada shunga e'tibor berilishi kerakki, ma'muriy javobgarlik saylov komissiyalarining har qanday qarorini ijro etmaslik oqibatida emas, balki, birinchidan, ularning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini, ikkinchidan, saylovlarni tashkil etish bilan bog'liq qarorlarini ijro etmaslik tufayli kelib chiqadi.<sup>3</sup>

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 513-moddasiga ko'ra, saylov komissiyalarining murojaatlarini ko'rib chiqishni g'ayrihuquqiy ravishda rad etish, ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish ham mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Qonun hujjatlarida saylov jarayonining maxsus ishtirokchilari bo'lgan deputatlikka nomzod, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod, ishonchli vakil, kuzatuvchi yoki siyosiy partiyaning vakolatli vakili huquqlarining buzilishi ma'muriy javobgarlik keltirib chiqaradigan huquqbuzarliklar sirasiga kiritilgan. aylovga oid qonun hujjatlarida fuqarolarning saylash va saylanish, saylovoldi tashviqoti olib borish huquqlarini amalga oshirishlariga zo'ravonlik, aldash, tahdid qilish yoki boshqa yo'l bilan qarshilik ko'rsatuvchi shaxslar, shuningdek, soxta saylov hujjatlari tuzgan, ovozlarni atayin noto'g'ri sanab chiqqan, yashirin ovoz berish prinsipini buzgan yoki saylovga oid qonun hujjatlari boshqacha tarzda buzilishiga yo'l qo'ygan saylov komissiyalarining a'zolari, boshqa mansabdor shaxslar, siyosiy partiyalarning vakillari qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Saylov qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 146 va 147-moddalarida belgilangan bo'lib, unga ko'ra, saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hamda saylov huquqining yoki ishonchli vakillar vakolatlaring amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish kabi harakatlarning sodir etilishi jinoiy-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.<sup>4</sup>

<sup>3</sup><https://www.uzbekistanitalia.org/pagina-iniziale/notizie-news/saylov-huquqi-kafolatlari-va-javobgarlik>

<sup>4</sup><https://www.uzbekistanitalia.org/pagina-iniziale/notizie-news/saylov-huquqi-kafolatlari-va-javobgarlik>

Saylov jarayonida zo'rlik ishlatish, aldash, qo'rqitish yoki og'dirib olish yo'li bilan fuqaroning saylov huquqlarini erkin amalga oshirishiga yoki deputatlikka yoxud O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning ishonchli vakillari ishiga to'sqinlik qilish kabi harakatlarning sodir etilishi ham jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, rivojlangan demokratik davlatlarda ham saylov qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Masalan, Germaniya, Shveysariya, Niderlandiya singari davlatlarning jinoyat qonunchiligida saylovlarni o'tkazishga zo'ravonlik yoki qo'rqituv yo'li bilan to'sqinlik qilish, saylov natijalarini, saylov hujjatlarini soxtalashtirish, saylov sirini oshkor qilish, saylov huquqini amalga oshirishga zo'ravonlik bilan qarshilik ko'rsatish singari qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Demak, saylovga oid qonunchilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi normalar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga asoslangan va rivojlangan demokratik davlatlarning qonunchilik amaliyoti hamda tajribasiga ham mos keladi, deb xulosa qilishga asos bo'ladi.

Saylov qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik belgilanishi saylov erkinligi prinsipining to'liq amalga oshirilishi, mamlakatimiz saylov tizimini yanada demokratlashtirish, saylovning ochiq-oshkoraligi prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu saylov jarayonlarida fuqarolarning saylash huquqini ta'minlash, ularga belgilangan tartib-taomillar asosida sharoitlar yaratish va saylovni ochiq, adolatli va albatta teng saylov huquqi asosida o'tkazilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu jarayonlar O'zbekistonning jahonda tutgan o'rni, xalqaro nufuzi va imidjiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Fuqarolar ham saylash huquqini amalga oshirishlari uchun davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalanib, o'z huquqidan faol foydalanishi, mamlakat kelajagiga befarq bo'lmasligi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023
2. <https://lex.uz/en/docs/-4386848>
3. <https://lex.uz/en/docs/-4386848>
4. <https://www.uzbekistanitalia.org/pagina-iniziale/notizie-news/saylov-huquqi-kafolatlari-va-javobgarlik>